

“Uzbekistan Airways”

AJ Yagona aksiyadorining 2019 yil “18”  
oktabr kungi 4-sonli qarori bilan  
“TASDIQLANDI”

**“UZBEKISTAN AIRWAYS” AKSIYADORLIK JAMIYATINING  
DIVIDENTLIK SIYOSATI TO‘G‘RISIDAGI YO‘RIQNOMA**

**Toshkent - 2019**

## **I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik Jamiyatining dividendlar siyosati to`g`risidagi Yo`riqnomasi (kelgusida – Yo`riqnomasi) O`zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi (kelgusida –Qonun), boshqa qonunchilik-normativ bayonnomalari, korporativ boshqarish Kodeksining tavsiyalari (31.12.2015y. kungi 9-sonli bayonnoma), “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati (kelgusida Jamiyat) Nizomi va boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Yo`riqnomasi Jamiyat aksiyalariga dividendlarni qiymatini belgilashda va ularni to`lashda shaffoflik mexanizmini ta`minlash maqsadida hamda Jamiyatning dividendlik siyosati to`g`risida aksiyadorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga ma`lumot berish maqsadida ishlab chiqarilgan.

3. Mazkur Yo`riqnomasi Jamiyat dividend siyosatini asosiy tuzilishi, maqsadi va tamoyillari, dividendlarni to`lash haqida Jamiyatning kuzatuv kengashining tavsiyalari, dividendlarni to`lash qaror qabul qilinish tartibi, shuningdek dividend siyosatiga rioya qilishdagi asosiy maqsadini belgilaydi.

4. Mazkur Yo`riqnomasi Jamiyat kuzatuv kengashi, ijro organi hamda Jamiyatning tuzilma bo`linmalari a`zolari, dividendlarni hisoblash va to`lashda ishtirok etuvchilar tomonidan rioya etilishi shart.

## **II. Jamiyatning dividend siyosatining maqsadi, asoslari va yo`nalishlari**

5. Jamiyatning dividend siyosati – bu jamiyatning sof foydani aksiyadorga dividendlarini to`lash va uni jamiyatning ixtiyorida qoldirish (zaxira jamg`armasiga yo`naltirish yo`li, to`plash yo/yoki o`tgan yillardagi zararni qoplash uchun) o`rtasida taqsimlanadigan miqdoriy parametrlarini aniqlashga qaratilgan harakatlar majmuyi, shuningdek dividendlarni to`lash tartibi va muddatini belgilash uchun munosabatlar tizimi va tamoyillari, shuningdek dividendlarni to`lash majburiyatini bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilashdir.

6. Jamiyatni dividend siyosatining maqsadi aksiyadorlarni farovonchiligini va Jamiyat kapitalashuvini o`shirishni ta`minlashdir.

7. Jamiyatning dividend siyosati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- shaffoflik tamoyili, dividend siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi tomonlarning majburiyatlari va ma`suliyati haqidagi ma`lumotni aniqlash va oshkor etishni, ko`zda tutuvchi, shu jumladan dividendlarni miqdori va to`lanishi haqida qaror qabul qilish tartibi va shartlarini ko`zda tutadi;

- zamonaviylik tamoyili, dividend to`lovlarini amalga oshirish uchun vaqtinchalik chegaralarni belgilashni ko`zda tutadi;

- asoslanganlik tamoyili, Jamiyatning haqiqiy moliyaviy ahvolidan kelib chiqib, rivojlanish rejalari va investitsiya dasturlarini hisobga olgan holda, (Jamiyat sof foydasidan hisobot davrida umidsiz debitorlik qarzdorlik bo`yicha zaxira yaratish yo`li bilan) Jamiyat faqatgina ijobiy moliyaviy natijalarga erishgan chog`ida dividendlarni to`lash va qiymati haqida qaror qabul qilishni ko`zda tutadi;

- adolatlilik tamoyili, Jamiyati aksiyasining har bir turi bo`yicha dividendlarini to`lash, miqdori va tartibi haqidagi qabul qilingan qarorlar haqida ma`lumot olish uchun aksiyadorlarni huquqlarini teng ta`minlashni ko`zda tutadi;

- ketma-ketlik tamoyili – dividend siyosatini tartibi va tamoyillarini qat`iy bajarishni ko`zda tutadi;

- rivojlanish tamoyili – Jamiyat strategik maqsadlarini o‘zgarishi munosabati bilan uning yo‘riqnomalarini qayta ko‘rib chiqish va korporativ boshqarishni yaxshilash doirasida dividend siyosatini doimo takomillashtirishni ko‘zda tutadi;

- barqarorlik tamoyili dividend to‘lovlarini bir xil darajada amalga oshirish uchun Jamiyatning intilishini ko‘zda tutadi.

### ***Divident siyosatining asosiy qoidalari***

8. Jamiyatning dividend siyosati, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyatning Nizomi va ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan, Jamiyat investitsiyaviy jozibasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, aksiyadorlarni huquqlarini qat’iy rioya qilishga asoslangandir.

9. Jamiyat aksiyadorlari quyidagi dividend huquqlarga egadirlar:

- dividendlar ko‘rinishidagi Jamiyat daromadining bir qismini olish uchun;
- olingan daromadlarga erkin egalik qilmoq.

Dividendlarni to‘lash haqidagi qaror qabul qilingan umumiy majlis o‘tkazish uchun, shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlari ro‘yxatida qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo‘yicha dividendlarni olishga haqlidirlar.

Aksiyalarni begonalashtirish chegarasini belgilash, aksiyadorni – ushbu aksiyalarni egasini Qonunda belgilangan tartibda dividendlarni olishga va Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqidan mahrum qila olmaydi.

10. Qo‘yilgan aksiyalarni sonini kamaytirish yoki kelgusida qayta sotish uchun Jamiyat tomonidan sotib olingan aksiyalar, Jamiyat ixtiyoriga o‘tkaziladi.

Jamiyat ixtiyoriga tushgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar hisoblanmaydi.

Qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda Jamiyat tomonidan sotib olingan aksiyalar Jamiyat ixtiyoriga o‘tkaziladi. Ko‘rsatilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar hisoblanmaydi.

11. Aksiyadorlarga dividendlarni olish orqali, Jamiyat daromadida teng va haqqoniy ishtirok etish imkoniyati berilishi kerak.

Aksiyadorlarni umumiy yig‘ilishi Jamiyat ijro organi va kuzatuv kengashi rioya qilinishi lozim bo‘lgan dividend siyosatini tasdiqlaydi.

Dividend siyosati o‘rta va uzoq muddatli davrga belgilanadi. Dividend siyosatini o‘zgarishi, aksiyadorlarga bunday o‘zgarishni kelib chiqishi va sabablarini batafsil tushuntirish bilan kechishi kerak. Dividend siyosatining o‘zgarishi, Jamiyat rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqmagan dividend siyosatini o‘zgarishi, masalan Jamiyat yoki umuman olganda iqtisodiy holati, masalan Jamiyatda korporativ boshqaruvdan o‘tish, yaxshi korporativ amaliyoti deb hisoblab bo‘lmaydi.

12. Jamiyat dividendlarni miqdorini aniqlash va ularni to‘lashni shaffof va tushunarli mexanizmi ishlab chiqishi va tatbiq qilishi kerak.

Dividendlarni miqdorini aniqlash va ularni to‘lash mexanizmining shaffofligini ta‘minlash uchun, Jamiyatning dividend siyosati dividendlarni to‘lashga yo‘naltirilgan sof foydani aniqlashni tartibga soluvchi qoidalarni, ular e‘lon qiladigan shartlarni, aksiyalar bo‘yicha dividendlar miqdorini hisoblash tartibi, nizomda belgilangan dividendlar miqdorini, Jamiyatlarning har xil turdagi, aksiyalari uchun minimal miqdori tartibini.

13. Jamiyatga dividendlarni to‘lash haqidagi qarorni qabul qilish tavsiya qilinmaydi, agar bu qaror, qonunchilikda belgilangan ajratmalarni rasman buzmasdan, iqtisodiy asoslanmagan bo‘lsa, Jamiyat faoliyati haqidagi yolg‘on tushunchani shakllantirishga olib kelishi mumkin.

Bunday qarorlar soniga, masalan, Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik rejasi (budget)da belgilangan maqsadli qarz darajasi Jamiyat tomonidan orttirilishi, yoki investitsiyaviy reja bajarilmaganda yoki imtiyozli aksiyalar va (yoki) oddiy aksiyalar bo'yicha pul oqimi kattaligi (pul mablag'larini yetarli emasligi) bo'lmasa, dividendlarni e'lon qilishi mumkin.

14. Jamiyat mavjud aksiyadorlarni dividend huquqlarini yomonlashuviga yo'l qo'ymasligi kerak.

Amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan aksiyadorlarni dividendlik huquqlarini himoya qilish vositalari va usullari doimo yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun Jamiyat va uni nazorat qiluvchi shaxslar, korporativ harakatlarni amalga oshirishda mavjud aksiyadorlarni dividend huquqlari va ulushlarini (shu jumladan mavjud aksiyadorlarga dividend huquqlari va ulushlarini samarador va kamsitmaydigan mexanizmini taqdim qilish yo'li bilan) saqlanishini ta'minlashga harakat qilishi kerak.

Jamiyat tomonidan aksiyalarni ajratish, konsolidatsiya qilish yoki konvertatsiya qilish, faqatgina aksiyadorlar huquqlarini yomonlashuviga yo'l qo'yilmasa, (bunda, korporativ nazoratni qayta taqsimlash maqsadida aksiyalarni ajratish, konsolidatsiya qilish yoki konvertatsiya qilish (yoxud darajasini o'zgartirish), shuningdek, aksiyadorlarni dividendlik huquqlarini yomonlashuvchiga yoki ularni Jamiyat jamg'armasidagi ulushlarini kamaytirishga olib keluvchi harakatlar) yo'l qo'yilishi mumkin.

15. Jamiyat, aksiyalarni dividendlari va tugatish qiymatidan tashqari, Jamiyat hisobidan daromad (foyda) olishning boshqa turlaridan aksiyadorlar foydalanishini istisno qilish uchun harakat qilish lozim.

Korporativ boshqarishning tegishli amaliyotiga asosan, aksiyadorlarni Jamiyat hisobidan daromad (foyda) olishlari, istisno tariqasida dividendlar va tugatish qiymatida bo'lishi mumkin. Jamiyatning boshqa yo'llar bilan foyda ko'rishining oldini olish uchun barcha choralarini ko'rish tavsiya etiladi, masalan, ichki ssudalar uchun dividendlarni almashtirish yoki asossiz Jamiyatni nazorat qiluvchi shaxslar (yirik aksiyadorlar)ni xizmatlarini ortiqcha narxlarda taqdim etish, shuningdek shunga o'xshash usullar bilan.

16. Jamiyat kapitallashtirishning o'sishini aksiyadorlarni Jamiyat aksiyalaridan foyda olishning eng asosiy usullaridan biri deb qaraydi.

Dividend siyosati, aksiyaning bozor qiymatini orttirish maqsadida, Jamiyat tomonidan olingan daromadni iste'mol va kapitallashtirish qismlari o'rtasida mutanosib optimallashtirishdan iborat.

17. Jamiyat aksiyadorlarga to'lanadigan dividendlarni miqdorini, Jamiyat investitsiyaviy va ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanish ehtiyojlari va moliyaviy hisobot davridagi olingan sof foyda miqdori hisobiga ko'paytirishga intiladi.

18. Jamiyatning aksiya dividendlarini to'lash haqidagi qaror (e'lon) qabul qilish Jamiyatning huquqi hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lov qilish yoki to'lov qilmaslik haqidagi qarorni qabul qilish huquqiga ega.

19. E'lon qilingan dividendni to'lov qilish Jamiyatning majburiyatiga kiradi.

20. Dividendlar bilan bog'liq xarajatlar (shu jumladan soliqlarni hisoblash va ushlab qolish, dividendlarni o'tkazish, pochta xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar dividendlar olayotgan aksiyadorlar zimmasiga boshqaruv organi qaroriga ko'ra yuklanishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq bu majburiyatni bajarmagani uchun aksiyadorlar oldida javobgardir.

21. Jamiyat sof foydadan Jamiyatning zaxira jamg'armasiga, uni to'liq shakllantirgunga qadar, Jamiyatning Nizom jamg'armasida belgilangan miqdorda majburiy ajratmalar hamda Jamiyatning Nizomi va ichki hujjatlariga muvofiq, majburiy ajratmalar va boshqa to'lovlarni o'tkazadi.

22. Dividendlarni o'z vaqtida to'lash va muomaladagi pul mablag'larini dividendlarni to'lash uchun olinganda Jamiyatning moliyaviy holati yomonlashuvini oldini olish maqsadida, Jamiyat tomonidan Jamiyatning foydasi hisobiga umidsiz debitor qarzdorlik bo'yicha zaxira tashkil qilinadi.

23. Jamiyat aksiyadorlariga dividend to'lovlari bo'yicha ba'zi bir masalalar Qonun normalari, O'zbekiston Respublikasi normativ-qonun bayonnomalari, Jamiyat Nizomi va ushbu Yo'riqnoma bilan tartibga solinmagan bo'lsa, unda aksiyadorlarni huquq va manfaatlarini ta'minlashdan kelib chiqib hal etilishi kerak.

24. Jamiyat dividend siyosati, aksiyadorlarni umumiy yig'ilishida tasdiqlangan, Jamiyat maqsadi va asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, aniq muddati ko'rsatilgan o'rta va uzoq muddatli Jamiyatning strategiyasini hisobga olgan holda ma'lum bir muddatga tuziladi.

25. Jamiyatning ushbu dividend siyosati **2019-2020 yillar** davri uchun ishlab chiqilgan.

26. Aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan Jamiyatning foydasi dividend hisoblanadi.

Jamiyat 30% dan kam bo'lmagan sof foydani har yili dividendlarni to'lashga yo'naltirish niyat qilgan.

27. Jamiyatning sof foydadan qolgan mablag'i o'rta va uzoq muddatli davrlarga Jamiyatni rivojlanish strategiyasi loyahasini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

### **III. Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan dividendlar to'lanishi bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish tartibi**

28. Qonunga muvofiq, Jamiyatning kuzatuv kengashini vakolatiga, aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga dividendning to'lov hajmi, shakli va tartib bo'yicha tavsiyalar berish kiradi.

29. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlar va Jamiyat balansiga rioya qilib, olingan moliyaviy natijalardan kelib chiqib, Jamiyatning aksiyalari bo'yicha tavsiya qilinayotgan dividendlar miqdorini belgilaydi. Bunda kuzatuv kengashi yildan yilga aksiyadorlarga dividendning ijobiy miqdorini boshqa teng shartlarda saqlab qolishga intiladi.

30. Korporativ boshqaruv Kodeksining va Jamiyat Nizomining tavsiyalariga muvofiq aksiyadorlar – Jamiyatning 1(bir) foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalarining egalari, Jamiyat foydasini taqsimlash, shu jumladan dividendlar to'lanishi haqida takliflarni kiritish huquqiga egadir.

31. Jamiyat Ijro organi rahbari Jamiyat kuzatuv kengashini jamiyat foydasini taqsimlash, shu jumladan dividendlar to'lanishi haqidagi takliflarni kiritish huquqiga egadir.

32. Strategiya bo'yicha kuzatuv kengashi qo'mitasi (Kuzatuv kengashi a'zosi, Jamiyatning dividendlar siyosatini amalga oshirish bo'yicha ma'sul) oldindan Jamiyatning moliyaviy ahvolini, kiritilgan takliflarni o'rganib chiqadi va daromadlarni taqsimlash va dividendlarni to'lash masalalari bo'yicha tegishli xulosani tayyorlaydi.

33. Kuzatuv kengashi dividendlarni to'lash masalalari bo'yicha quyidagilarga asoslanadi:

- amaldagi qonunchilikka;
- Jamiyat Nizomiga;

- mazkur Yo`riqnomaga;
- strategiya bo'yicha kuzatuv kengashi qo'mitasining xulosasiga (yoki dividend siyosatini amalga oshirish bo'yicha ma'sul, kuzatuv kengashining a'zosiga);
- ichki audit xizmati hisobotiga;
- taftish komissiyasining xulosasiga;
- Jamiyatning tashqi auditorini xulosasiga;
- O'zR Moliya vazirligining farmoyishiga (agar Jamiyatning nizom jamg'armasida davlat ulushi bo'lsa);
- Jamiyatning 1 (bir) foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlarning takliflariga;
- Jamiyat ijro organi rahbarining takliflariga.

34. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tavsiyanomalar ishlab chiqarilishida, dividendlarni to'lash masalasi bo'yicha, kuzatuv kengashi quyidagi yondashuvlarga asoslanadi:

- Jamiyatda dividendlarni to'lash bo'yicha qonunchilikda belgilangan chegaralar bo'lmasa;
- Jamiyatda moliyaviy hisobotlar bo'yicha moliyaviy davrda, soliqqa tortilganidan so'ng, qolgan daromadlar (Jamiyatning sof foydasi) bo'lsa yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uni taqsimlash haqida qaror qabul qilinmay qolgan, o'tgan yillarning taqsimlanmagan daromadlari bo'lsa;
- moliyaviy hisobotning ishonchliligi, Jamiyat tashqi auditori tomonidan tasdiqlanishi lozim;
- Qonun Jamiyatning Nizomi va ichki hujjatlari hamda normativ-huquqiy bayonnomalarining talablariga muvofiq, sof foydadan majburiy ajratmalarni amalga oshirish;
- Jamiyatning 10% sof foydasidan kam bo'lmagan miqdordagi umidsiz debitorlik qarzdorlik zaxirasi mavjud bo'lsa;
- Jamiyatning qisqa muddatli majburiyalarini hamda Jamiyat Nizomi va Qonunda belgilangan muddatlarda, dividendlar to'lovini amalga oshirish uchun;
- Jamiyatda kerakli miqdorda sof aktivlarni borligi (jamiyat sof aktivi uning nizom va zaxira jamg'armalarini pul mablag'lari, Jamiyat sof aktivini qiymatini yashiradi).
- Jamiyat samaradorligini quyidagi muhim ko'rsatkichlari:
  - a) mutlaq likvidlik koeffitsiyenti 0,2 dan kam emas;
  - b) moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 1 dan yuqori;
  - v) qoplama nisbati (to'lov qobiliyati) 1,25 dan yuqori;
  - g) dividend chiqishi (sof foydaning qaysi qismi Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'loviga yo'naltiriladi) – umuman olganda qiymat qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik aksiyadorlarga Jamiyatning daromadi katta bo'ladi.

35. Kuzatuv kengashi, kuzatuv kengashining tavsiya qilinayotgan dividendlarni to'lov miqdorini aniqlashda, Jamiyatning keyingi davrga moliyaviy-xo'jalik rejalarini, Jamiyatning joriy va kelgusidagi majburiyatlari va aylanma mablag'larini holatini hisobga olishi kerak.

36. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya qilinayotgan dividendlar to'lovi, Jamiyatni keyingi davrga tasdiqlangan moliyaviy-xo'jalik rejalarida ko'zda tutilmagan qo'shimcha qarzni moliyalashtirishga olib kelmasligi kerak.

37. Moliyaviy hisobot yili uchun sof foydadan yillik dividendlarni to'lash haqidagi qarorni qabul qilishda, O'zR qonunchiligi, Jamiyatning Nizomi va ichki hujjatlariga muvofiq, Jamiyat uchun majburiy ajratmalarga mablag' ajratiladi.

38. Moliyaviy hisobot yili uchun sof foydadan yillik dividendlarni to'lash haqidagi qarorni qabul qilishda, moliyaviy yilning to'qqiz oyi, yarim yili va birinchi choragi natijalari bo'yicha oldin to'langan dividendlar hisobga olinadi.

39. Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya qilinayotgan oraliq dividendlar (moliyaviy yilni tugatilishidan oldin e'lon qilingan dividendlar – birinchi chorak, yarim yillik va to'qqiz oylik natijalari bo'yicha) quyidagi shartlarga muvofiq belgilanadi:

- joriy yil foydaning dividendlar miqdori, kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan (yoki ma'qullangan) (amaldagi qonunga, Jamiyatning Nizomi va ichki hujjatlariga muvofiq), Jamiyatning zaxira va boshqa jamg'armalariga majburiy ajratmalar hisobga olingan holda), Jamiyatning biznes-rejasiga muvofiq, joriy yilda rejalashtirilgan dividendlar miqdoridan oshmasligi kerak;

- joriy yildagi foydaning dividendlar miqdori, Jamiyatda mavjud bo'lgan, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida taqsimlash haqida qaror qabul qilinmagan, Jamiyatning o'tgan yillardagi foydaning miqdoridan (buxgalteriya hisobotlari bo'yicha) ortmasligi kerak.

40. Oddiy bir aksiyaga to'lanadigan dividend miqdori, O'zR qonunchiligi, Jamiyatning Nizomi va ushbu Yo'riqnomaga muvofiq belgilanadi.

41. E'lon qilingan dividendlar, aksiyadorlardan ushlab qolinadigan soliqlarni o'z ichiga oladi.

42. Kuzatuv kengashining aksiyadorlarni, umumiy yig'ilishiga dividendlar to'lanishi bo'yicha masalalarning tavsiyalarida quyidagilar belgilanishi mumkin:

- dividendlarni to'lash uchun sof foydaning miqdori;

- tavsiya qilinayotgan sof foydani taqsimlash, dividendlar miqdori, ularni Jamiyatda qabul qilingan dividendlar siyosati bilan muvofiqligini baholash, shuningdek zaruriy holatlarda, Jamiyat rivojlanishdagi ehtiyojiga sof foydaning belgilangan qismini yo'naltirish hajmini, iqtisodiy asoslantirish va izohlash;

- dividendlar e'lon qilinadigan aksiyalar;

- belgilangan turdagi bir aksiyani hisobidagi dividend miqdori;

- to'lov muddati (davri);

- to'lov shakli.

- to'lov tartibi.

43. Dividend to'lash masalalari bo'yicha, aksiyadorlarni umumiy yig'ilishiga, Jamiyat kuzatuv kengashining yig'ilishi yuzma-yuz shaklda o'tkazilishi kerak.

44. Dividendlarni to'lash va miqdori bo'yicha tavsiyalar haqidagi qaror, kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozda qabul qilinishi lozim.

#### **IV. Dividendlarni to'lash haqidagi qarorni qabul qilish tartibi**

45. Jamiyat Nizomi va Qonunga muvofiq, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash haqidagi qaror, moliyaviy yilning natijalari va (yoki) moliyaviy yilning to'qqiz oyi, yarim yili, birinchi choragi natijalari bo'yicha qabul qilinishi kerak.



46. Jamiyatning moliyaviy yilning to‘qqiz oy, yarim yil, birinchi chorak natijalari bo‘yicha dividendlarni to‘lash haqidagi qarori, tegishli davr tugaganidan so‘ng 3 (uch) oy ichida qabul qilinishi mumkin.

47. Jamiyatning dividendlarni to‘lash, dividend miqdori, shakli va to‘lash tartibi haqidagi qaror, Jamiyatning kuzatuv kengashining tavsiyasiga ko‘ra va moliyaviy hisobotni, uning ishonchliligi haqida auditor xulosasi mavjud bo‘lgan hollarda qabul qilinadi.

48. Jamiyatning moliyaviy yil bo‘yicha dividendlarni to‘lash haqidagi qaror, aksiyadorlarni yillik umumiy yig‘ilishida moliyaviy yilning natijalari bo‘yicha Jamiyat foydasini taqsimlash haqida qabul qilinadi.

49. Jamiyatning moliyaviy yilning to‘qqiz oy, yarim yil, birinchi chorak natijalari bo‘yicha dividendlarni to‘lash haqidagi qarori, aksiyadorlarni umumiy yig‘ilishining kun tartibida alohida masala sifatida, aksiyadorlarni umumiy yig‘ilishida qabul qilinadi.

50. Aksiyalar bo‘yicha to‘lanadigan dividendlar miqdori, Jamiyatning kuzatuv kengashining tavsiyasiga ko‘ra, aksiyadorlarni umumiy yig‘ilishida belgilanadi va kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya qilingan miqdordan katta bo‘lmasligi kerak.

51. Dividendlarni (yillik, oraliq) to‘lash haqidagi qaror, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiradi.

52. Dividendlarni to‘lash haqidagi qaror, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan oddiy aksiyadorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

53. Aksiyadorlarni dividendlarni to‘lash haqidagi, umumiy yig‘ilish qarorida quyidagilar belgilanishi kerak:

- dividendlarni to‘lash uchun, sof foydani miqdori;
- tavsiya qilinayotgan sof foydani taqsimlash, dividendlar miqdori, ularni Jamiyatda qabul qilingan dividendlar siyosati bilan muvofiqligini baholash, shuningdek, zaruriy holatlarda, Jamiyat rivojlanishdagi ehtiyojiga sof foydani belgilangan qismini yo‘naltirish hajmini iqtisodiy asoslantirish va izohlash
- dividendlar e‘lon qilinadigan aksiyalar turi;
- belgilangan turdagi bitta aksiyani hisobidagi dividend miqdori;
- to‘lov muddati (davri);
- to‘lov shakli.
- to‘lov tartibi.

54. Dividendlarni to‘lash haqidagi qaror, aksiyadorga har turdagi aksiyalar bo‘yicha dividend miqdoriga tegishli, to‘la-to‘kis ma‘lumotlar olish imkonini berish.

55. Jamiyat aksiyadorlarini umumiy yig‘ilishi belgilangan turdagi aksiyalar bo‘yicha dividendlarga to‘lamaslik haqida, shuningdek Jamiyat Nizomida belgilangan dividend miqdori, shuningdek imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘liq bo‘lmagan to‘lovni amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqlidir.

56. Dividendlarni to‘lash yoki to‘lamaslik haqidagi qarordan korporativ nazoratni qayta taqsimlash uchun vosita sifatida foydalanmaslik kerak.

57. Qonunchilikka muvofiq, Jamiyat quyidagi aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lash haqidagi qarorni qabul qilishga haqli emas:

- Jamiyatni ta'sis etishda, uni ta'sis etishdagi Nizom jamg'armasi to'liq shakllantirilgunga qadar;

- agar qaror qabul qilinayotgan vaqtda, bankrotlik alomatlari yoki dividendlar to'lash natijasida ushbu belgilar paydo bo'lsa;

- Jamiyat sof aktivlari uning Nizom jamg'armasi yoki zaxira jamg'armasining summasidan kam bo'lsa.

Yuqoridagi holatlar tugaganidan so'ng, Jamiyat aksiyadorlarga, hisoblangan dividendlarni to'lashga majbur.

58. Jamiyat moliyaviy yilning oddiy aksiyalari bo'yicha dividendlarni (shu jumladan to'qqiz oy, yarim yil, birinchi chorak natijalari bo'yicha) to'lash haqidagi qarorni, agar barcha kategoriyadagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha (Jamiyat imtiyozli aksiyalari joylashtirilgan bo'lsa) dividendlarni to'liq to'lash (shu jumladan, imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'plangan dividendlar) haqida qaror qabul qilishga haqli emas.

59. Agar avvalgi imtiyozli aksiyalarning barcha toifalari bo'yicha dividendlarni (shu jumladan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'plangan dividendlarga) to'liq to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan bo'lsa, Jamiyat ma'lum toifadagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilish (e'lon qilish)ga haqli emas.

## **V. Dividendlarning hisob-kitobi va hisoblanish tartibi**

60. Aksiyadorlarga dividend to'lash haqida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun, Jamiyat aksiyadorlar ro'yxatida qayd etilgan shaxslar, aksiyalar bo'yicha dividendlarni olish huquqiga egadir.

61. Dividendlar olish huquqiga ega bo'lgan, ro'yxatidagi vazifasiga korporativ munosabatlarni ushlab turish yuklatilgan, aksiyadorlar bilan kiruvchi shaxslar Jamiyatning tuzilma bo'linmasini tashkil qiladi.

62. Dividendlarni olish huquqi bo'lgan shaxslar ro'yxatiga quyidagi shaxslar kiritiladi:

- ro'yxat tuzilish sanasida, aksiyadorlar reestrda qayd etilgan aksiyadorlar;

- ro'yxatni tuzish sanasiga aksiyadorlar ro'yxatiga kiritilgan, aksiya bo'yicha huquqlari berilgan, boshqa shaxslar (garov egalari, ishongan boshqaruvchilar va boshq.), agar aksiyador bilan bunday shaxs shartnomada o'zga belgilanmagan bo'lsa.

63. Agar aksiyalar egalik ulushda bo'lmagan holatda, aksiyalarni birgalikdagi egalarning barchasi, dividendlarni olish huquqiga ega bo'lganlar ro'yxatiga kiritiladi.

64. Dividendlarni olish usullar bo'yicha ma'lumotlar, investitsiya vositachisining Depo hisobi anketasida yoki qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariyasida saqlanadi. Depo hisob anketasiga tegishli o'zgartirishlarni kiritish ma'suliyati aksiya egasiga yuklanadi.

65. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha Markaziy depozitariyasi tomonidan shakllantirilgan aksiyadorlar ro'yxatiga o'zgartirish kiritilishida, qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlarda, Jamiyat qimmatli qog'ozlar bo'yicha Markaziy depozitariyasidan aksiyadorlar ro'yxatiga, bunday o'zgartirish kiritilishini sabablari haqida ma'lumotni so'raydi va dividendlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatiga kiritib qo'yadi.

66. Har qanday aksiyador, Jamiyatga o'zini dividendlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgani (kiritilmagani) haqidagi ma'lumot berilishini talab qilish huquqiga egadir.

67. Jamiyat talabnoma kiritilgan vaqtdan boshlab, 15 (o'n besh) ish kuni mobaynida aksiyadorga, javobini tayyorlab, agar talabnomada ma'lumot olishning boshqa usuli ko'rsatilmagan bo'lsa, uning pochta manzili bo'yicha yuboradi.

68. Aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan, Jamiyatning sof foydasi - dividenddir.

69. Dividendlarni hisoblab yozish, Jamiyatning buxgalteriyasi (moliyaviy boshqarmasi) tomonidan amalga oshiriladi.

70. Dividendni hisob-kitobi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- bir imtiyozli aksiya uchun dividend Jamiyatning Nizomi bilan belgilanadi;

- Jamiyat Nizomida belgilangan, bitta imtiyozli aksiya dividend miqdoriga, imtiyozli aksiyaning sonini ko'paytirish yo'li bilan, Jamiyat imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni to'lash uchun daromad summasi belgilanadi;

- dividendlarni to'lash uchun aksiyadorlar umumiy yig'ilishida yo'naltirilgan daromadning umumiy summasidan, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash uchun kerakli bo'lgan daromad summasi ayriladi;

- dividendlarni to'lash uchun yo'naltirilgan, umumiy daromadning qolgan qismi, oddiy joylashtirilgan aksiyalarning soniga bo'linib va Jamiyatning bitta oddiy aksiyasi miqdoriga belgilanadi.

71. Dividend aksiyadorlar o'rtasida dividend miqdorini hisobga olgan holda, ular egalik qiladigan aksiyalar soni va turiga muntanosib ravishda taqsimlanadi.

72. Dividendlar soliq qonunchiligiga muvofiq soliqqa totiladi va ular bo'yicha imtiyozlar belgilanishi mumkin.

73. Dividend quyidagilarga hisoblanmaydi va to'lanmaydi:

- joylashtirilmagan aksiyalarga;

- Jamiyat tomonidan sotib olingan aksiyalarga;

- davlat vakili tomonidan dividendlarni hisob-kitob qilish va to'lash masalasi bo'yicha, Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qaroriga ta'qiq qo'yilsa (agar Jamiyatda "Tilla aksiya" kiritilgan bo'lsa);

- kuzatish kiritilgan onidan, bankrotlik haqida ish qo'zg'atilgan bo'lsa.

- O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda.

74. Jamiyat soliqni hisobga olmasdan dividend miqdorini e'lon qiladi. Jamiyat qonunchilikda belgilangan muddatlarda Jamiyatning korporativ veb-saytida va qimmatli qog'ozlarni tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida to'lanadigan dividendlar miqdorini chop etadi.

## **VII. Dividendlarni to'lash tartibi**

75. Jamiyat har bir turdagi aksiyalar uchun e'lon qilingan dividendlar miqdorini to'lashga majbur.

Dividendlarni to'lash tartibi, ularni olish uchun aksiyadorlarni huquqlarini amalga oshirish uchun eng yaxshi yordam berishi kerak.

### **To'lov manbasi**

76. Dividendlar Jamiyat hisobida qolgan, Jamiyatning sof foydasidan va (yoki) oldingi yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

Imtiyozli aksiyalar uchun dividendlar, Jamiyatning zaxira jamg'armasi hisobidan to'lanishi ham mumkin.

### **To'lov muddati**

77. Dividendlarni to'lov muddati va tartibi, Jamiyat Nizomi yoki aksidorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati, bunday qaror qabul qilingan kundan 60 (oltmish) kun o'tmasligi kerak.

78. Agar dividendlarni to'lashning oxirgi kuni ish kuniga to'g'ri kelsa, keyingi kunning ish kuni, to'lov muddatini oxirgi kuni deb hisoblanadi.

79. Jamiyat belgilangan to'lov muddatni tugaguniga qadar, e'lon qilingan dividendlarni to'lashga majburdir.

80. Jamiyat dividendlar to'lovi bo'yicha majburiyatlarini belgilangan to'lov muddatining har qanday kunida to'lash huquqiga ega.

81. Jamiyat aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lovini eng so'nggi muddatini belgilamaydi va to'lovini to'xtatmaydi hamda hisoblangan ( olinmagan) dividendlarni belgilangan muddatda olmagan aksiya egalari uch yil mobaynida to'lov qilishda davom etadi.

### **To'lov shakli**

82. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan dividendlar pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan yoki Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlar, qimmatli qog'ozlarda to'lanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Dividendlarni faqatgina pul mablag'larida to'lanishi tavsiya qilinadi, chunki boshqa mulk bilan to'lov qilinganida, aniq to'langan dividendlarni baholash mushkuldir, bunday mulk bilan dividendlarni olish, aksiyadorlar uchun qo'shimcha xarajatlar va qo'shimcha majburiyatlarga olib kelishi mumkin.

83. Dividendlarni pul mablag'i bilan to'lov holatlarida, e'lon qilingan dividendlar O'zR milliy valyutasida to'lov qilinadi.

Jamiyat O'zbekiston Respublikasining norezidenti – aksiyadorning yozma talabnomasiga asosan, unga hisoblangan dividendlarni, norezident aksiyador tomonidan taqdim qilingan bank hisob raqamiga, erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada o'tkazishga majbur.

Jamiyat tomonidan tasdiqlangan, aksiyadorlar ro'yxatidan chiqarish haqidagi ko'chirma va hisoblangan dividendlar summasi va ularning hisoblanish sanasi haqidagi ma'lumot konvertatsiya qilish uchun asos bo'ladi.

84. Dividendlarni boshqa qonuniy vositalari (mulk, qimmatli qog'ozlar) bilan to'lash holatlarida e'lon qilingan dividendlar to'lovi, O'zR qonunchiligida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

### **Soliqqa tortish**

85. To'lanadigan dividendlarni soliqqa tortilishi, O'zR amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

86. Jamiyat o'ziga tegishli aksiyalar bo'yicha, aksiyadorlar dividendlar to'lashda soliq agenti hisoblanadi. Jamiyat dividendlardan soliq summalarini amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda va muddatlarda hisoblash, ushlab qolish va budjetga o'tkazishni amalga oshiradi.

Dividendlar ushlab qoling solliqlar ayrimasidan aksiyadorlarga o'tkazib beriladi.

87. Soliq stavkalari qo'llanishi kerak bo'lmagan aksiyador, Jamiyatga amaldagi qonunchilikda belgilangan tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart.

### **To'lov tartibi**

88. Aksiyadorlar bilan korporativ boshqaruvni o'rtasidagi aloqani ushlab turish vazifasi yuklatilgan Jamiyat tuzilmasining bo'linmasi, mazkur Yo'riqnomada ko'zda tutilgan dividendlarni Jamiyat tomonidan to'lanishini tashkil etish bo'yicha barcha tadbirlarni tayyorlash, tartibga solish va o'tkazishni amalga oshiradi.

89. Birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar, keyin oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi.

Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qayd etilgan dividendlarni to'lash uchun yetarli foyda mavjud bo'lganida, Jamiyat ko'rsatilgan aksiyalarning egalari dividendlarni to'lashni rad etish huquqiga ega emas.

Jamiyat rad etgan holatda aksiyadorlar sud tartibida dividendlarni to'lashni talab etishlari mumkin.

Imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lovni amalga oshirishda, Jamiyatning daromadlari yetarli bo'lmasa yoki zararli bo'lsa, bu maqsadlar uchun tashkil qilingan, faqatgina Jamiyatning zaxira jamg'armasi doirasida va uning hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Jamiyatning zaxira jamg'armasida mablag'lar bo'lmagan hollarda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'plab boriladi va agar ushbu Nizomda ko'zda tutilgan bo'lsa to'lanadi.

Imtiyozli aksiyalarga dividendlar to'lanmasligi, ularni to'lash uchun boshqa manbalar mavjud bo'lsa, buning natijasida, imtiyozli aksiyalarning egasi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini kun tartibidagi barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqini olsa, bu tegishli korporativ amaliyoti deb hisoblanmaydi.

Jamiyatning moliyaviy imkoniyatlari cheklangan sharoitlarda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash haqidagi shunga o'xshash qarorni qabul qilishda, imtiyozli aksiyalarning egasi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini kun tartibidagi, uning vakolatiga kiruvchi masalalarda ovoz berish huquqini istisno qila olsa, bu tegishli korporativ amaliyoti deb hisoblanmaydi.

90. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalarga hisoblangan dividendlar to'lovi, dividendlar olish uchun aksiyadorlarning teng huquqini ta'minlash bilan amalga oshiriladi.

Dividendlar to'lashda, aksiyadorlarning hech qaysisi to'lov muddati bo'yicha imtiyozga ega emas.

Bunda Jamiyat yirik aksiyadorlarga, agar buning natijasida minoritar aksiyadorlarga belgilangan muddatlarda dividendlar to'lanishi ta'minlanmasa, dividend to'lash huquqiga ega emas.

91. Jamiyat hisobidan bank hisob raqamiga o'tkazilgan tegishli summa, Jamiyat aksidorlar ro'yxatini yuritilish tizimida mavjud bo'lgan yoki dividend to'lanishi hisobiga aksiyadorga beriladigan boshqa mulk, agar ushbu to'lov shakli aksiyadorlarni umumiy yig'ilishi yoki Nizom bilan belgilangan bo'lsa, dividend to'lovi bajarilgan deb hisoblanadi.

92. Kun tartibiga moliyaviy yilning yakuni bo'yicha oraliq dividendni to'lash yoki foydani taqsimlash masalalari kiritilgan, aksiyadorlarni umumiy yig'ilishini o'tkazish haqidagi xabarda, aksiyadorlarga agar bank rekvizitlari va pochta manzili o'zgargan taqdirda, investitsiya vositachisi Depo anketasining hisobiga yoki qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysida o'zgartirish kiritishi, shuningdek bu majburiyatlarga rioya qilmaganligi uchun javobgarligi haqida tushuntirishi kerak.

93. Aksiyador investitsiya vositachisini yoki uning huquqlarini hisobga olish xizmatini amalga oshiruvchi, qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysiga o'z vaqtida ma'lumot berishi kerak. Aksiyadorlar o'zi haqidagi ma'lumotlarni bermasa, investitsiya vositachisi yoki uning huquqlarini hisobga olish xizmatini amalga oshiruvchi, qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi, shu orqali aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javobgar emasdir.

Agar aksiyador o'zining bank rekvizitlarini yoki dividend to'lanadigan manzilgochini noto'g'ri ko'rsatgan bo'lsa yoxud ko'rsatilgan rekvizitlar haqida Jamiyatga xabar bermasa yoxud

o'z vaqtida xabar bermasa, Jamiyat shu orqali aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javobgar emasdir. Ushbu bandeda ko'rsatilgan sabablarga ko'ra aksiyadorning aybi bilan noto'g'ri o'tkazilgan dividend summalari Jamiyatga qaytarilganidan so'ng ularni qaytarilishi va qayta o'tkazilishi uchun ketgan xarajatlar ayrilganidan so'ng, qaytadan aksiyadorga o'tkaziladi. Merosxo'r meros natijasida o'tgan dividendni olish uchun dividendni oladigan joyiga, notarial tasdiqlangan merosga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi guvohnomani taqdim etishi kerak.

94. Jamiyat dividendlarni mustaqil ravishda to'lash yoki dividendlarni to'lovini tashkil etish va amalga oshirish maqsadida, shartnoma asosida to'lov vakili - chet tashkilotni jalb qilishi mumkin. Jamiyat tomonidan to'lovchi vakillarni jalb etish, Jamiyatni aksiyadorlar oldidagi ularga tegishli dividendlarni to'lashdan ozod etmaydi. Jamiyat o'z aksiyadorlarini to'lovchi vakil jalb qilingani, uni almashtirilgan va uning vakolatini muddati tugaganligi haqida ma'lumot berish huquqiga ega.

95. Dividendlarni to'lash bo'yicha xarajatlar Jamiyat hisobidan amalga oshiriladi.

96. Jamiyat aybi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda dividendlar to'lovi qilinmasa (olinmagan bo'lsa), O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan dividendlarni qayta moliyalash stavkasidan kelib chiqib, to'lanmagan dividendlar uchun penya hisoblanadi. To'lanmagan dividendlar uchun penya miqdori, to'lanmagan (olinmagan) dividendlar summasining 50% dan yuqori bo'lmasligi kerak.

97. Jamiyat aksiyadorlariga tegishli dividendlarni to'lamagan taqdirda, qimmatli qog'ozlarni tartibga soluvchi vakolatli davlat tashkiloti, Jamiyat aksiyadorlarining murojaatiga asosan, sudga ushbu Jamiyatga jamiyatning aksiyadorlariga dividend to'lash haqidagi majburiyatni yuklatilishi haqida da'vo kiritish huquqiga egadir. Bunday da'voni kiritish va ko'rib chiqish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

98. Aksiyador Jamiyat tomonidan hisoblangan dividendlarni to'lanishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega. Sud tomonidan dividendlarni to'lash haqidagi aksiyadorning talabnomasi bajarilmasa, Jamiyatga nisbatan to'lashga qodir emaslik bartaraf etish prosedurasi o'tkaziladi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda bankrot deb e'lon qilinadi.

99. Egasi yoki uning qonuniy vakili yoki qonuniy vorisi tomonidan talab qilib olinmagan dividend uch yil o'tganidan so'ng aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyatning ixtiyorida qoldiriladi.

100. Jamiyat quyidagi aksiyalar uchun dividendlar hisoblash huquqiga ega emas:

- agar dividend to'lash vaqtida bankrotlik belgilari bo'lsa yoki ko'rsatilgan belgilar dividendlarni to'lash natijasida Jamiyatda paydo bo'lsa;

- agar Jamiyatning sof aktivini qiymati Nizom jamg'armasi va zaxira jamg'armasi summasidan kam bo'lsa.

Mazkur holatlar tugatilganidan so'ng Jamiyat aksiyadorlarga hisoblangan dividendlarni to'lashga majbur.

101. Jamiyat tugatilganida ikkinchi o'rinda imtiyozli aksiyalar bo'yicha hisoblangan, ammo to'lovi amalga oshirilmagan va imtiyozli aksiyalar bo'yicha tugatish qiymatidagi Jamiyat Nizomi bilan belgilangan dividendlar to'lovi amalga oshiriladi.

Agar Jamiyatdagi mavjud mulklar, imtiyozli aksiyalar bo'yicha hisoblangan, ammo to'lovi amalga oshirilmagan va tugatish qiymatidagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha, Jamiyat nizomi bilan belgilangan dividendlar summasi, barcha aksiyadorlarga-imtiyozli aksiya egalariga yetarli bo'lmasa, unda mulklar barcha aksiyadorlarga-imtiyozli aksiya egalariga ularga tegishli bo'lgan aksiyalar soniga proporsional ravishda taqsimlanadi.

## **VIII. Ma'lumotni oshkor qilish tartibi**

102. Jamiyat qonunchilik-normativ bayonnomalarining talablariga muvofiq korporativ veb-saytida quyidagilarni joylashtiradi:

- aksiyadorlarni umumiy yig`ilishi tomonidan, oraliq dividendlarni to`lash tartibi va shakllari, miqdori haqidagi qarorni qabul qilganligi haqidagi muhim faktlari bo`lgan ma`lumotlar;
- aksiyadorlar umumiy majlis tomonidan, yillik dividendlarni to`lash miqdori, muddati, shakli va to`lash tartibi haqidagi qarorni qabul qilinganligi haqidagi muhim faktlari bo`lgan ma`lumot.

Bunda Jamiyat tomonidan elektron pochta orqali, aksiyadorlarga ularga hisoblangan dividendlar haqida xabarnoma yuboradi.

Jamiyat tomonidan dividendlarni to`lash bo`yicha majburiyatlari bajarilganligi haqidagi qonunchilikda belgilangan muddat va shakllarda tegishli ma`lumotlarni oshkor qiladi.

103. Korporativ boshqaruv Kodeksi tavsisi ko`ra, Jamiyat qo`shimcha ravishda quyidagi ma`lumotlarni oshkor qiladi:

- tegishli qaror qabul qilingan, Jamiyat aksiyadorlarining umumiy majlis bayonnomasi imzolangan kundan 5 besh ish kuni mobaynida ushbu Yo`riqnoma hamda unga tegishli barcha o`zgartirish va qo`shimchalari bilan;
- sof foydani taqsimlash, dividendlar miqori, Jamiyatning qabul qilgan dividend siyosatiga muvofiqligini, shuningdek zarurat tug`ilganda, Jamiyatning rivojlanishida ehtiyojlari va belgilangan sof foyda qismini yo`naltirilgan hajmlarni iqtisodiy asoslash va sharhlash;
- dividend miqdorini hisoblashning shaffof mexanizmi;
- oxirgi 5 (besh) yil ichida dividendlarni to`lashning o`sis sur`ati.

104. Jamiyatning yillik hisobotida, Jamiyat foydasini taqsimlash va uning Jamiyat qabul qilgan dividend siyosatiga muvofiqligi haqidagi ma`lumotlar bo`lishi kerak.

105. Aksiyadorlar umumiy yig`ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlarni asoslantirilganligini oshirish maqsadida aksiyadorlar umumiy yig`ilishiga tayyorgarlik ko`rishda, aksiyadorlarga taqdim qilinadigan va qonunchilikda ko`zda tutilgan majburiy materiallardan tashqari aksiyadorlarga quyidagi materiallar taqdim qilinadi:

- dividendlarni to`lash uchun yetarli sharoitlar bor yoki yo`qligi haqidagi ma`lumot, foydani mavjudligi haqidagi auditorning xulosasi, ushbu masala yuzasidan kuzatuv kengashining tavsiyalari;
- taklif qilinayotgan sof foydani taqsimlash va uni Jamiyatda qabul qilingan dividend siyosatiga muvofiqligini asoslash, shu jumladan, dividendlarni va Jamiyatning shaxsiy ehtiyojlari uchun to`lashga hamda sof foydaning ma`lum qismini shaxsiy ehtiyoj uchun yo`naltirilishini iqtisodiy asoslash va sharhlash;
- aksiyadorlarni dividend huquqlari yomonlashuviga olib kelgan yoki aksiyadorlar huquqlarining ulushini yo`q qilish bo`yicha korporativ harakatlar haqida ma`lumotlar, shuningdek, dividend va tugatish qiymatidan tashqari Jamiyat hisobidan foyda olish usullari bo`yicha sud qarorlari;

106. Aksiyadorlarining talabiga ko`ra Jamiyat mazkur Yo`riqnomaning 102 bandida ko`rsatilgan e`lon qilingan dividendlar haqidagi ma`lumotni taqdim etadi.

### **IX. Jamiyatning e`lon qilingan dividendlar bo`yicha mas`uliyati**

107. Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig`ilishi va Jamiyatning Nizomida belgilangan muddat

va hajmlarda e'lon qilingan dividendlarni to'lashga majbur.

108. Jamiyatning ijro organi, Jamiyat aksiyadorlariga dividendlarni to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga javobgardir. Ijro organi ustidan nazoratni, Jamiyatning kuzatuv kengashi taftish komissiyasi bilan birgalikda amalga oshiradi.

109. Hisoblangan dividendlarni to'lovini ta'minlash maqsadida kuzatuv kengashi o'zining yig'ilishlarida, dividendlar to'lov amalga oshirilishi haqidagi masalalarni ko'rib chiqadi. Ijro organining aybi bilan dividendlar o'z vaqtida va to'liq to'lanmasa, Kuzatuv kengashi aybdor shaxslarga javobgarlik sanksiyalarini qo'llaydi yoki ularni qo'llashni boshlaydi.

110. Jamiyat tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik holatlarida aksiyadorlar sud tartibida, aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlarni to'lashni talab qilish huquqiga egadir.

111. Dividendlar summasidan, soliq summalarini ushlab qolish va o'tkazish bo'yicha Jamiyatga yuklatilgan soliq agenti o'z majburiyatini bajarmaganlik uchun, Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

## **X. Yakuniy qoidalar**

112. Mazkur Yo'riqnoma aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

Ushbu Yo'riqnomani tasdiqlash bo'yicha aksiyadorlarni umumiy yig'ilishi qarori, majlisda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

113. Ushbu Yo'riqnomaga qonunchilikning o'zgarishi, Jamiyat Nizomi yoki ichki hujjatlariga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilishi munosabati bilan va boshqa hollarda o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Mazkur Yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kuzatuv kengashining, kuzatuv kengashining qo'mitasining a'zolari (Jamiyatni ichki nazorat tizimni samaradorli ishlashi uchun ma'sul kuzatuv kengashining a'zosi) taftish komissiyasi, ichki audit xizmati, korporativ maslahatchi va Jamiyatning ijro organining taklifiga asosan kiritiladi.

Mazkur Yo'riqnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

Ushbu Yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi tasdiqlash bo'yicha aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori, majlisida ishtirok etgan aksiyadorlarni ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

114. Agar mazkur Yo'riqnomaning ayrim moddalari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yo/yoki Jamiyat Nizomiga zid bo'lsa, bu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu moddalardagi tartibga solinuvchi masalalar qismi, mazkur Yo'riqnomaga tegishli o'zgartirish kiritilguniga qadar, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik normalariga asoslanadi.